

O'ZBEKISTON: ZAMONAVIY ILM-FAN VA TADQIQOT MASALALARI

O'ZBEK TILIDA YANGI SO'ZLAR (NEOLOGIZMLAR) SHAKLLANISH JARAYONI

O'roqova Gullola Shokir qizi

Samarqand davlat pedagogika instituti talabasi

Ilmiy Rahbar:

Xalilov Kobuljon Yusupovich

Samarqand davlat pedagogika instituti assistenti

Annotatsiya: Ushbu ilmiy ishda zamonaviy o'zbek tilidagi leksik o'zgarishlar, xususan, yangi paydo bo'lgan so'zlarning shakllanish qonuniyatlari tahlil qilinadi. Xalqaro aloqalarning kuchayishi va raqamli texnologiyalar davrida o'zbek tili lug'at tarkibining shiddat bilan boyib borishi mazkur mavzuni o'rganish muhim ekanligini belgilaydi. O'rganish doirasida yangi so'zlarning yuzaga kelish manbalari ikki yo'nalishda tahlil qilingan. Birinchisi, ichki imkoniyatlar — tilning o'z resurslari hisobiga, ya'ni affiksatsiya (qo'shimchalar orqali), kompozitsiya (so'z qo'shish) va semantik ko'chish (mavjud so'zlarga yangi ma'no yuklash) usullari orqali yangi so'z yasash jarayonlari. Ikkinchisi, chet tillaridan (xususan, ingliz va rus tillari orqali) kirib kelayotgan o'zlashmalarning o'zbek tili fonetik va morfologik qoidalariga moslashish (adaptatsiya) bosqichlari. Maqolada ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ommaviy madaniyatga oid neologizmlar alohida guruhlariga ajratib ko'rsatilgan. Shuningdek, yangi paydo bo'lgan birliklarning nutqda ommalashishi va ularning til tizimidagi barqarorlashuv jarayoni lingvistik jihatdan yoritiladi.

Kalit so'zlar: neologizm, leksik qatlam, so'z yasash usullari, barqarorlashuv jarayoni, lingvistik jihat, o'zlashma so'zlar, affiksatsiya.

Kirish

Neologizmlar yangilik bo'yog'iga ega bo'lgan lug'aviy birliklardir. Ular tilda boshqa so'zlarga nisbatan keyin paydo bo'ladi. Hozirgi o'zbek adabiy tilida tadbirkor, tadbirkorlik, pudrat, pudratchilik, tijorat, tijoratchilik, tadbirkorlik harakati, bankrot, barter va h.k. so'zlar hozirgi ma'nosi bilan paydo bo'lganligiga ko'p vaqt bo'lganicha yo'q. Bu so'z va birikmalar shu keyingi davrda paydo bo'lgan ma'nolariga ko'ra yangilik bo'yog'iga ega lug'aviy birliklardir. So'zlarning yangilik bo'yog'iga ega bo'lishi yoki zamonaviylik kasb etib, yangilik bo'yog'ini "tark etishi" nisbiy xarakterga ega.

Bir vaqtlar yangilik bo'yog'i kasb etib, neologizm sanalgan lug'aviy birliklar tilning keyingi taraqqiyot bosqichlarida odatiy so'zlar xarakteriga kirib, neologizmlikdan soqit bo'lishi hollari bo'lib turadi. Masalan, o'tgan asrning o'ttizinchi-qirqinchi yillarida o'zbek tili leksikasining neologizmlar qatorida bo'lib, uni to'ldirgan kanikul, ta'mir, pechat, sekretar, student, trener, biblioteka,



O'ZBEKISTON: ZAMONAVIY ILM-FAN VA TADQIQOT MASALALARI

agitatsiya, propaganda, konferensiya, ministr, programma, zapas, spravka, akt, kontakt, raport, agressiv, alternativ, impuls, injener, kategoriya, meditsina, vrach//doktor, kollektiv singari bir necha o'nlab so'zlar endilikda neologizm bo'lmay qoldi. O'sha davrda ularga xos bo'lgan yangilik bo'yog'i endilikda ta'til, ta'mir, muhr, kotib, talaba, ustoz, kutubxona, targ'ibot, tashviqot, anjuman, vazir, dastur, zaxira, ma'lumotnoma, dalolat, xabarnoma, bosqinchi, saylanma, turtkimuhandis, toifa, tibbiyot, tabib singari zamonaviy lug'aviy muqobillariga ko'chdi [1.138].

Neologizm tilga umuman mansub bo'lishi yoki yakka shaxs nutqiga xos bo'lishi mumkin. Birinchisi umumtil neologizmi deb, ikkinchisi individual nutq neologizmi deb yuritiladi. Leksikada asosan umumtil neologizmi o'rganiladi. Individual nutq neologizmi uslubga xos hodisa deb qaraladi. Har qanday neologizm dastlab individual nutqda yuzaga keladi. Bunday neologizm ko'pchilik tomonidan tan olinsa, tilning taraqqiyot qonunlariga mos holda hosil qilingan bo'lsa va tilda ma'lum ma'noni anglatish uchun zarur deb qaralsa, shundagina umumtil neologizmga aylanadi, yakka nutq doirasidan chiqadi. Agar bunday talablarga javob bermasa, individual nutq doirasida qolib ketadi. Umumtil neologizmi tilda ma'lum vaqt ishlatilganidan keyin yangilik bo'yog'ini yo'qotadi va ko'pincha odatdagi, zamonaviy leksemaga aylanib ketadi.

Leksik neologizm o'z mohiyatiga ko'ra ikki guruhga ajraladi:

a) leksema yaxlitligicha neologizm bo'ladi; buni neologizm-leksema deb nomlash mumkin: (paxta) yakkaziroatchiligi, ma'muriyatchilik kabi.

b) leksema emas, balki uning sememalaridan biri neologizm bo'ladi; buni neologizm-semema deb nomlash mumkin: o'tkirlashtir- (obostryat leksemasining kalkasi) kabi.

Neologizm-leksema bilan neologizm-semema asli bir hodisa, chunki har ikkisi leksik ma'noga asoslanadi: birinchisi yangi monosemem (birma'noli) leksema bo'ladi, ikkinchisi esa polisemem (ko'pma'noli) leksemaning keyingi, yangi ma'nosi bo'ladi. Shunga ko'ra neologizmning bu turlarini "leksik neologizm", "semantik neologizm" deb nomlash to'g'ri bo'lmaydi. Leksik ma'no taraqqiyotidan ko'ra tilda leksema yasash va leksema o'zlashtirish miqdor jihatidan ustun turadi, shu sababli neologizm-sememadan ko'ra neologizm-leksema ko'p bo'ladi.

Leksemaning yangi bo'lishi boshqa-yu, yangilik bo'yog'iga ega bo'lishi boshqa. Har qanday yangi leksema neologizm bo'lavermaydi. Masalan, kompyuter, ksereks, birja kabilar — o'zbek tiliga yaqin vaqtlarda kirib kelgan leksemalar, lekin bu leksemalarni neologizm deb bo'lmaydi, chunki bu leksemalar hozirgi o'zbek tilida yangilik bo'yog'ini yo'qotib, odatdagi leksemaga aylangan. Demak, neologizm — o'ta nisbiy tushuncha.

Avvalo, til taraqqiyotining har bir bosqichi o'z neologizmiga ega bo'ladi, bir bosqichda neologizm deb qaralgan hodisa ikkinchi bosqichda ham



neologizm bo'lishi shart emas. Masalan, 30-yillar nuqtayi nazaridan shpal, seyalka kabi leksemalar neologizm deb baholansa, hozirgi o'zbek tilida bular odatdagi, zamonaviy leksemaga aylangan; 20-yillar nuqtayi nazaridan neologizm deb qaralgan aeroplan, yo'qsil (proletariy) kabi leksemalar esa arxaizmga aylangan (arxaizm quyi-roqda bayon qilinadi).

Ikkinchidan, neologizmni belgilashda shu hodisaning tilda (individual neologizmning esa nutqda) qancha vaqt mavjudligi ham ahamiyatsiz. Leksema juda qisqa vaqt ichida neologizmlikdan chiqib ketishi ham, uzoq vaqt neologizmligicha qolib ketishi ham mumkin. Umumtil neologizmi odatdagi, zamonaviy leksemaga tez aylanadi; individual nutq neologizmi esa, qancha vaqt o'tmasin, o'z yangilik bo'yog'ini yo'qotmasligi, umuman neologizmligicha qolib ketishi mumkin. Masalan, tuzum leksemasi 20–30-yillarda neologizm edi, hozir odatdagi leksemaga aylangan; G'afur G'ulomning ilk poeziyasida uchraydigan mozollan- (mozollangan qo'llar — “Olqish”, “Tagdo'zi”), fashistlan- (fashistlanaroq — “To'qinish”), qo'ng'irla- (Qo'zichoqning barrasidek mayda qo'ng'irlab — “Non”) kabilar o'zi ishlatilgan asar doirasida individual nutq neologizmligicha qolib ketgan [2.92, 93].

Neologizmlarning lug'aviy (leksik) va ma'naviy (semantik) kabi ikki turi mavjud. Lug'aviy neologizmlar tilning ifoda jabhasiga xos bo'ladi. Bu xususiyatga fonetik shakllangan va ijtimoiy hayotda vujudga kelgan yangi tushunchalarni atash vazifasini bajarishga xoslangan odatdagi so'z va birikmalar ega bo'ladi. Hozirgi o'zbek adabiy tilidagi “Mercedes”, “Samsung”, “Soni”, prezident, istiqloq, mustaqillik, rayosat, taqdimot, farmon, farmoyish, hamdo'stlik mamlakatlari, hissadorlik jamiyati, katta biznes, kichik biznes, o'rta biznes, tuman, ma'naviyat, ma'naviyat markazi, fuqaro, fuqarolik, barter, marketing, menejer, broker, dizayner, amaliyot kabilar lug'aviy neologizmlardir. Ma'naviy (semantik) neologizmlar tilning mazmun jabhasidagi yangi lisoniy birlik bo'lib, tilda oldindan mavjud bo'lgan biror-bir lug'aviy birlik ijtimoiy hayotda paydo bo'lgan yangi, zamonaviy ma'no kasb etadi. Neologizmning bu turiga rais, oqsoqol, hokim, qozi so'zlarining keyingi vaqtlarda kasb etgan ma'nolarini kiritish mumkin.

Lug'aviy neologizmlar lug'aviy okkozionalizmlarga yaqin, ular bilan munosabatdosh hodisa. Biroq bu ikki hodisa orasida sezilarli farq ham yo'q emas. Lug'aviy neologizmlar tilda ommalashayotgan va unga (ommalashishga) moyil lisoniy birliklardir, shu bois ular til hodisasi sifatida baholanadi, bora-bora til lug'at tarkibidan o'z lisoniy o'rnini topadi, lug'atlarga kiritiladi. Okkozionalizmlar esa nutqda muayyan bir ekspressivlikni ro'yobga chiqarish maqsadida atayin paydo qilinadi, shu sababli nutqiy hodisa sanaladi. Ular umumtilda ommalashsagina, lug'atlarga kiritiladi. Til lug'atidan o'rin olmagan har qanday lisoniy birlik okkozionalizmlardir. Ularni individual nutq neologizmlari deb ham ataladi. Bunda okkozionalizmlarning ana shu xususiyati



nazarda tutiladi [1.139]. O'zbek badiiy adabiyotida ko'zga tashlanuvchi osmondosh, qirdosh, joydosh, cho'ldosh, dumdosha, kulgidosh, kulgidrom, sezgidosh, kulgiskop, kulginika, paysalchilar (ishni paysalga solib yuruvchilar), sukutchilar (sukut saqlab yuruvchilar), yomg'irxat, qirovxat, shabnamxat, jalaxat va boshqalar lug'aviy okkozionalizmlarga kiradi. Ular so'z yasashning okkozional (okkozional so'z yasalishi) usuli yordamida hosil qilingan. Masalan, yozuvchi Said Ahmad ijodidan olingan: "Qorxat ziyofatiga o'rganganlar yomg'irxat, shabnamxat, qirovxat, jalaxat degan yangi-yangi odatlarni o'ylab chiqarmasliklariga kim kafolat beradi?" gapidagi yomg'irxat, shabnamxat, qirovxat, jalaxat okkozionalizmlari ayrim muallif asaridagina uchragan individual nutq neologizmlari yoki lug'aviy okkozionalizmlardir.

Neologizmlar yangi voqelikning yangi nomi (konfliktsizlik — adabiyotshunoslik atamasi, kosmodrom), nomga ega bo'lgan voqelikning yangi nomi sifatida vujudga keladi. Keyingi tip neologizmga fotokartochka so'zini misol keltirish mumkin. Bu so'z neologizm sifatida surat so'ziga ma'nodosh bo'lgan. Natijada surat va rasm so'zlarining ma'nolarida farqlanish vujudga keldi. Bu har ikki so'z "kartina" ma'nosini ham, "fotokartochka" ma'nosini ham anglataverar edi. Hozir esa surat so'zi asosan "kartina" ma'nosini, rasm so'zi esa asosan "fotokartochka" ma'nosini anglatadi.

Neologizmlar badiiy nutqda ham qo'llanadi, ta'sirchanlik, ekspressivlik ifodalovchi vositaga aylanadi. Masalan, shoir Odil Ikromning "Uchinchi dunyo" deb nomlangan she'ridan olingan quyidagi parchada vahdat so'zi lug'aviy neologizmdir:

Vahdat sharobidan ko'ngil bo'lar mast,

Diling bilan bitta bo'lsa zaboning. [1.140]

Neologizm ikki xil talabga (ehtiyojga) ko'ra paydo bo'ladi:

1. Yangi voqelikning yangi nomi sifatida. Bunda neologizm o'zi anglatayotgan voqelikning yagona nomi bo'ladi, nominativ vazifani o'taydi: konfliktsizlik (adabiyotshunoslik termini), kosmodrom (har ikki leksema yangilik bo'yog'ini tezda yo'qotdi), mahkamachilik kabi.

2. Nomlangan voqelikning yangi nomi bo'ladi. Haqiqiy neologizm asli shu. Bunda o'zigacha nomlangan voqelikni yangidan nomlaydi, natijada sinonimiya tug'iladi. Masalan, fotokartochka leksemasi avval neologizm sifatida suvrat leksemasi bilan sinonimik munosabat hosil etdi. Natijada suvrat va rasm leksemalarining leksik ma'nolarida chegaralanish, xoslanish voqe bo'layotir. Bu har ikki leksema "kartina" ma'nosini ham, "fotokartochka" ma'nosini ham anglataverar edi. Hozir esa suvrat leksemasi asosan "kartina" ma'nosini, rasm leksemasi asosan "fotokartochka" ma'nosini anglatish uchun ishlatilmoqda.

Neologizm quyidagi yo'llar bilan paydo bo'ladi:

1) Leksema yasash orqali. Bunda ikki hodisani farqlash kerak:

a) Yangidan yasash yo'li bilan hosil qilinadi: almashlab (ekish),



aqidaparastlik — umumtil neologizmlaridagi; sho‘xshanlan- (G‘afur G‘ulom, “Baxt tongotari”), kuzaytir- (kuzga aylantir — G‘afur G‘ulom, “Biz tinchlik istaymiz”) individual nutq neologizmlaridagi kabi.

b) Mavjud leksemaga parallel ravishda yasash yo‘li bilan paydo bo‘ladi. Bu yo‘l bilan asosan individual nutq neologizmi hosil bo‘ladi: sezim- (sezgi leksemasiga nisbatan; G‘afur G‘ulom, “Qalblarning mojarosi”), shaklcha- (shaklan leksemasiga nisbatan), mazmuncha- (mazmunan leksemasiga nisbatan: “...shaklcha ko‘p sodda, mazmuncha salmoqdor qarorlar...” — G‘afur G‘ulom, “Hech qanday bir qo‘rg‘on bormikan...”) hollardagi kabi.

2) Leksemaning leksik ma‘no taraqqiyoti yo‘li bilan paydo bo‘ladi. Masalan, bekat leksemasining “transport vositalarining to‘xtash joyi” ma‘nosi kabi. Bu leksema asli “uzoq qatnov yo‘lidagi to‘xtab, dam olib, tunab o‘tiladigan joy” ma‘nosini anglatadi.

3) O‘zlashtirish orqali paydo bo‘ladi: detal leksemasining “tafsilot”, “mayda-chuyda” ma‘nosi kabi: Qiladigan ishlaringizning ba’zi detallari haqida mana bu kishi ma‘lumot beradi. Detal leksemasining “qism” ma‘nosi hozir neologizmlikdan chiqqan [2.94].

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy o‘zbek tili leksikasidagi o‘zgarishlar shunchaki miqdoriy o‘sish emas, balki tilning davr talablariga moslashish jarayonidir. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek tili lug‘at tarkibi ham ichki resurslar (yasama so‘zlar), ham tashqi o‘zlashmalar hisobiga faol boyib bormoqda. Ayniqsa, raqamli texnologiyalar va iqtisodiyot sohasidagi neologizmlarning kirib kelishi tilning lisoniy manzarasini tubdan yangilamoqda. Ushbu jarayonlarni tizimli o‘rganish, yangi birliklarning imlo qoidalarini shakllantirish va ularning milliy til tabiatiga moslashuvini nazorat qilish zamonaviy o‘zbek tilshunosligining dolzarb vazifasi bo‘lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Berdialiyeu, A., Ermatov, I. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: «Turon-Iqbol», 2021. – B. 138-140.
2. Rahmatullayev, Sh. Hozirgi adabiy o‘zbek tili. – Toshkent: «Universitet», 2006. – B. 92-94.

